

**«O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI» AJ  
yagona aksiyadorining  
2020 yil “30” iyundagi  
57 – sonli Qarori bilan  
“TASDIQLANGAN”**

**“O‘ZBEKISTON TEMIR YO‘LLARI”  
Aksiyadorlik jamiyatining KUZATUV KENGASHI TO‘G‘RISIDAGI  
NIZOMI**

**Toshkent- 2020 y.**

## **UMUMIY QOIDALAR**

1. Ushbu nizom "O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" aksiyadorlik jamiyati Kuzatuv kengashining (bundan keyin matnda - Kengash) reglamenti, maqomini, kengash a'zolarini saylashi, huquq va majburiyatlarini belgilab beradi.

2. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqini himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, boshqa me'yoriy-normativ hujjatlar va "O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" aksiyadorlik jamiyatining (bundan keyin matnda - jamiyat) Ustaviga ko'ra ishlab chiqilgan.

3. Jamiyat Kengashi Jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, qonun va Jamiyat ustaviga asosan yagona aksiyadorining vakolatiga kiradigan masalalarni hal qilish bundan mustasno.

## **JAMIYAT KENGASHINING VAKOLATLARI**

4. Kuzatuv kengashi vakolatlari doirasiga quyidagilar kiradi:

- jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;
- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;
- jamiyatning yillik biznes-rejasini ma'qullash. Bunda jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi jamiyat kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;
- biznes-rejasida ko'rsatkichlarini bajarilishini monitoring qilish;
- ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;
- jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;
- dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;
- jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

-mulkchilikning har qanday huquqiy shaklidagi korxonalar, tashkilotlar va muassasalarni, shuningdek Jamiyatning filiallari va vakolatxonalarini ochish;

- jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 8- moddasiga muvofiq ushbu bitimni tuzish sanasida jamiyat tomonidan predmeti mulk, balans qiymati yoki xarid qilish qiymati jamiyatning sof aktivlari hajmining o'n beshdan ellik foizigachani tashkil etadigan yirik bitimni tuzish haqidagi qarorni qabul qilish;

- O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 9- moddasiga muvofiq jamiyatning affillangan shaxsi bilan bitim tuzish haqidagi qarorni qabul qilish;

- jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

-jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va jamiyat kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal qiladi.

5. Jamiyatning kuzatuv kengashi Korporativ boshqaruv kodeksi tavsiyalarini amalga tatbiq etish uchun amalga oshiradi:

- jamiyatda tuzilgan ijro organi, jamiyatning ichki nazorati organlari, kollegial organlar faoliyatini muvofiqlashtirish va zarurat tug'ilganda jamiyatni rivojlantirish rejalarini tuzishni tashkillashtirish va unda belgilangan maqsadlarga yetishish monitoringi uchun ekspertlarni jalb etish;

- Jamiyatning tashkiliy tuzulmasi qonunchilik talablariga mosligi borasida baholab borish ishlanma ishlab chiqish, tatbiq etish va muntazamligini ta'minlash, hamda Xalqaro moliyaviy hisobot yuritish standartlariga mos ravishda har yillik moliyaviy hisobotlarni nashr etishga o'tishni ta'minlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish.

6. Jamiyatning kuzatuv kengashi vakolatlari doirasiga kiritilgan masalalar bo'yicha jamiyatning ijro organi qaror qabul qilishi mumkin emas.

## **JAMIYAT KENGASHI A'ZOLARINING SAYLANISHI, TAYINLANISHI VA MUDDATIDAN OLDIN VAKOLATLARINING TUGATILISHI**

7. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan, yagona aksiyador tomonidan jamiyat kengashiga nomzodlar yozma ravishda beriladi.

- Jamiyatning kengashi tarkibiga saylanayotgan shaxslar korporativ boshqaruvchi (davlat hissasi mavjud bo'lgan jamiyatlar uchun) shahodatnomasi yoki Korporativ boshqaruv bo'yicha ilmiy – ta'lim markazi sertifikatiga ega bo'lishlari, oliy ma'lumotli va kamida 3 yil ish stajiga ega bo'lgan shaxslar bo'lishi zarur.

8. Yagona aksiyador Qaroriga asosan, Jamiyat Kengashi tarkibiga saylanadi.

9. Jamiyat kengashi a'zolariga saylangan kengash a'zolarini muddatidan avval vakolatini tugatish yagona aksiyadorning yozma talabiga ko'ra amalga oshiriladi.

## **JAMIYAT KENGASHINING RAISI**

10. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuniga asosan, Kengash a'zolari ichidan saylanadi.

11. Jamiyat kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, kuzatuv kengashi majlislarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, majlislarda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi.

12. Jamiyat Kengashi a'zolari o'rtasida funksiyalarni taqsimlash Jamiyat kengashi raisi tomonidan, xususan, Jamiyat Kengashining har bir a'zosi uchun amalga oshiriladi.

## **JAMIYAT KENGASHINING YIG'ILISHI**

13. Jamiyatning kengashi yig'ilishi kengashi raisi tomonidan uning tashabbusi asosida, yagona aksidor talabi asosida, kengashi a'zosi, taftish komissiyasi, ijro organi a'zosi talabiga binoan chaqiriladi.

14. Jamiyatning kengashi yig'ilishi kengash raisi tomonidan kamida har chorakda bir marta chaqiriladi. Yig'ilishda majburiy tarzda ko'riladigan masalalar:

ijro organining jamiyatni yillik biznes – rejasi bajarilishi jarayoni, jamiyatni rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish, qilingan ishlar va jamiyat tarkibiga kiruvchi korxonalarining tasdiqlangan biznes–rejalarda belgilangan ko‘rsatkichlariga yetishishlari, hamda jamiyatning boshqa ichki hujjatlari haqida hisoboti;

ichki audit xizmati hisoboti;

taftish komissiyasining affillangan shaxslar bilan bitim tuzilishi yoki jamiyatda tuzilgan yirik bitimlar hamda ushbu bitimlarni tuzishda qonunchilik talablari va ichki hujjatlarga rioya qilinishi haqidagi xulosasi.

15. Jamiyatning kengashi yig‘ilishini o‘tkazish uchun kворum jamiyat kengashi saylangan a‘zolarining umumiy sonidan yetmish besh foizdan kam bo‘lmagani holatida mavjud bo‘ladi.

16. Jamiyatning kengashi yig‘ilishlarida qarorlar, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” gi Qonuniga asosan qabul qilinadi.

17. Majlis bayonnomasida quyidagilar ko‘rsatiladi:  
majlis o‘tkazilgan sana, vaqt va joy;  
majlisda hozir bo‘lgan shaxslar;  
majlisning kun tartibi;  
qabul qilingan qarorlar.

18. Jamiyat kengash majlisining bayonnomasi majlisda ishtirok etayotgan jamiyat kengashi a‘zolari tomonidan imzolanadi, ular majlis bayonnomasi to‘g‘ri rasmiylashtirilishi uchun javobgar bo‘ladi.

19. Jamiyat kengashi bayonnomasi uni imzolangan kuni ijro uchun jamiyat Boshqaruvi raisiga topshiriladi.

20. Kengashining yig‘ilishi so‘rov yo‘li bilan ham o‘tkazilishi mumkin. Bu asnoda jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari kuzatuv kengashining a‘zolari tomonidan bir ovozda sirdan ovoz berish (so‘rov shaklida) yo‘li bilan qabul qilinishi mumkin.

21. Texnik vositalar mavjud bo‘lgan xolda, Jamiyat kengashi a‘zolarini aniqlash vositalari va boshqa jihozlar mavjud bo‘lganda, Jamiyat kengashi majlislari video-konferentsiya rejimida o‘tkazilishi mumkin.

## **JAMIYAT KENGASHI A‘ZOLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

22. Kuzatuv kengashi a‘zosi quyidagilarga haqli:

- kuzatuv kengashi yig'ilishida shaxsan qatnashish, reglament bo'yicha belgilangan vaqt doirasida muhokama qilinayotgan masala bo'yicha so'zga chiqish;

-kuzatuv kengashi qarori asosida jamiyatning muayyan muddat davomidagi faoliyati, uni rivojlanish rejalari haqida ma'lumot olish;

- qonunchilik va jamiyatning nizomi tomonidan ko'zda tutilgan boshqa huquqlar;

- qonunchilik va jamiyatning ichki hujjatlari bilan belgilangan tartibda kuzatuv kengashida ishlagani uchun mukofot va (yoki) xarajatlari uchun badallar olish;

- kuzatuv kengashi qoshida tegishli masalalar bo'yicha kengash a'zolari, ijro organi, jamiyat xodimlari va jalb etilgan ekspertlar (mos malakaga ega mutaxassislar, ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari tarkibi va boshq.) hisobidan qo'mitalar (ishchi guruhlar) tuzish;

Kuzatuv kengashi a'zosining vazifalari:

- taxmin qilinayotgan bitim, ushbu shartnomaning jiddiy shartlari haqida mufassal ma'lumotlarni ko'rsatgan holda yozma xabarnoma orqali jamiyatni o'zining affillangani borasida jamiyatni xabardor etish;

- o'zining xizmat vazifalarini sidqidildan, hamda jamiyat manfaatlari yo'lida eng to'g'ri deb topilgan ravishda ijro etish;

- qonunchilik va jamiyat nizomi bilan belgilangan boshqa vazifa va majburiyatlar.

23. Kuzatuv kengashining a'zolari jamiyat imkoniyatlarini (mulkiy va nomulkiy huquqlar, xo'jalik faoliyat sohasidagi imkoniyatlar, jamiyat faoliyati va rejalari haqidagi ma'lumotlar) shaxsiy boyish uchun ishlatishga haqlari yo'q.

## **JAMIYAT KENGASH A'ZOLARINING JAVOBGARLIGI**

24. Jamiyat kengashi a'zolari o'z huquqlari amalga oshirish va majburiyatlarini bajarish chog'ida jamiyat manfaatini ko'zlab amal qilishlari zarur va qonunchilik va jamiyat nizomiga muvofiq jamiyat oldida javobgardirlar.

25. Agar javobgarlik bir necha kishiga yuklatilgan bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi umumiydir.

26. Jamiyatga zarar yetkazadigan qaror bo'yicha qarshi ovoz bergan yoki ovoz berishda qatnashmagan kuzatuv kengashi a'zolari javobgar emaslar, O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunning 90-moddasida nazarda tutilgan holatlar bundan mustasnodir.

27. Jamiyat kengashi a'zosi ustidan sudga shikoyat qilib, jamiyatga yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishi mumkin.

## **KUZATUV KENGASHI A'ZOLARIGA BERILADIGAN MUKOFOT MIQDORINI ANIQLASH TARTIBI**

28. Jamiyat kengashiga ular o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haq to'lanishi va (yoki) kuzatuv kengashining a'zosi vazifalarini bajarish bilan bog'liq xarajatlarining o'rni qoplanishi mumkin.

29. Jamiyat kengashining har bir a'zosi o'z vazifalarini bajarib turgan davr uchun quyidagi tartibda haq to'lanadi:

- Jamiyat kengashi raisiga o'z vazifasini bajarib turgan davrning har choragida O'zbekiston Respublikada o'rnatilgan eng kam mehnatga haq to'lashning 17 barobari miqdorida;
- Jamiyat kengashi a'zolariga o'z vazifalarini bajarib turgan davrning choragida O'zbekiston Respublikada o'rnatilgan eng kam mehnatga haq to'lashning 15 barobari miqdorida haq to'lanadi.

30. Qo'shimcha ravishda har yili o'tkaziladigan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalariga ko'ra kuzatuv kengashi a'zolariga Yagona aksiyadorning qarori bilan mukofot to'lanishi mumkin.

## **YAKUNIY QOIDALAR**

31. Ushbu Nizomning talablarini buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgardirlar.

32. Agar ushbu Nizomning alohida moddalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiyat Nizomiga xilof bo'lsa, bu moddalar o'z kuchini yo'qotadi va bu moddalarda berilgan holatlar bo'yicha ushbu Nizomga tegishli o'zgartishlar kiritilgunga qadar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va/yoki Jamiyat Nizomiga asosan amal qilinishi zarur.